TALABALARDA KASBIY MULOQOTNING O‘ZIGA XOS TARKIBIY TUZILISHI

N.I.Ruziyev[1]

1. O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya institute milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik sikl katta o‘qituvchisi

Mas'ul muallif: Ruziyev Nodirbek Ikromovich, O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya institute milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik sikl katta o‘qituvchisi.

Received: 15 Oktabr 2026
Accepted: 20 Oktabr 2026
Published: 25 Oktabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Ruziyev, N. I. TALABALARDA KASBIY MULOQOTNING O‘ZIGA XOS TARKIBIY TUZILISHI / N. I. Ruziyev // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 10, № 2. — B. 279–282. — DOI: 10.67780/buxoro-xalqaro-universiteti-ilmiy-axborotnomasi.2026.0a87cc99.

Annotatsiya. Shaxslararo munosabatlarda til odobi, nutq madaniyatida buzilishlar davom etmoqda, o‘zbek tilining musaffoligi, aniq va lo‘ndaligi, mantiqiyligi, ohangdorligi va silliqligi muloqotda o‘z ifodasini topa olmayapti, natijada uzatilayotgan fikrlarni idrok qilish qiyinlashmoqda. Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo nutq madaniyatini yoshlarda shakllantirishdir. Shuningdek, o‘qitish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarga muloqot madaniyati, muomala sirlarini singdirish, guruh va jamoalarda o‘zaro munosabatlarni muloqot orqali yaxshilashdir. Muloqotning nazariy va metodologik muammolarini hal qilish, muloqotni nutq bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlash bizning asosiy maqsadimizni tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: emotsional, motivatsion qirralar, ehtiyoj, individual-tipologik xususiyat, qobiliyat, e’tiqod, pedagogik muloqot.

ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В межличностных отношениях продолжают наблюдаться нарушения речевого этикета и культуры речи, в результате чего чистота узбекского языка, его точность и лаконичность, логичность, выразительность и плавность не всегда находят должного отражения в процессе общения. Вследствие этого затрудняется восприятие передаваемых мыслей. Основной целью психологии общения, прежде всего, является формирование у молодежи культуры речи. Кроме того, в процессе обучения важно прививать будущим специалистам культуру общения, навыки эффективного взаимодействия, а также посредством общения совершенствовать взаимоотношения в учебных группах и коллективах. Решение теоретических и методологических проблем общения, обеспечение его развития во взаимосвязи с речевой деятельностью составляют основную цель данного исследования.

Ключевые слова: эмоциональные и мотивационные аспекты, потребность, индивидуально-типологические особенности, способности, убеждения, педагогическое общение.

FEATURES OF THE STRUCTURE OF STUDENTS’ PROFESSIONAL COMMUNICATION

FEATURES OF THE STRUCTURE OF STUDENTS’ PROFESSIONAL COMMUNICATION

Аннотация. В межличностных отношениях продолжают наблюдаться нарушения речевого этикета и культуры речи, в результате чего чистота узбекского языка, его точность и лаконичность, логичность, выразительность и плавность не всегда находят должного отражения в процессе общения. Вследствие этого затрудняется восприятие передаваемых мыслей. Основной целью психологии общения, прежде всего, является формирование у молодежи культуры речи. Кроме того, в процессе обучения важно прививать будущим специалистам культуру общения, навыки эффективного взаимодействия, а также посредством общения совершенствовать взаимоотношения в учебных группах и коллективах. Решение теоретических и методологических проблем общения, обеспечение его развития во взаимосвязи с речевой деятельностью составляют основную цель данного исследования.

Ключевые слова: эмоциональные и мотивационные аспекты, потребность, индивидуально-типологические особенности, способности, убеждения, педагогическое общение.

Kirish. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma’naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog‘liq bo‘lib, shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g‘oyalarini

anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlari, sifatlari namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Kasbiy pedagogik muloqot deganda biz nimani tushinamiz, bu o'qituvchi va talabaning ta'lim-tarbiya jarayonining professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Pedagog, talaba va tinglovchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. Talaba va tinglovchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadigan muloqotning o'ziga xos 3 ta xususiyati mavjud:

-makro daraja-insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi.

-mezzo daraja (o'rta) – muloqot ma'lum mavzu bo'yicha kechadi. Masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik.

-mikro daraja (kichik) – muloqotning shakllari savol-javob tarzida yuz beradi.

Muloqotning shaxslararo, guruhiy, ommaviy-kommunikatsiya (radio, TV, ro'znomalar) kabi turlari mavjud. Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq: - o'quvchilar bilan o'zaro harakat qilish; - birgalikda harakat qilish. Talaba va tinglovchilar ta'sir qilishda uning xulq atvorini boshqarish o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash. O'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi; - o'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik harakatini saqlay bilish; - o'qituvchi talaba va tinglovchilar bilan ziddiyatlarga borsa qandaydir muommo tug'ilsa darxol hal qilish lozim.

Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib talaba va tinglovchilar bilan muloqotda bo'lishi nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi. Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim: - bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini o'qituvchining talaba va tinglovchilar bilan bo'ladigan munosabatlarning o'rganish; - o'qituvchining mashg'ulotda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday shakillantirish, o'quv- tarbiyaviy muommolarni yechishni aniqlash; - o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi; - tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi talaba va tinglovchilarning individual xususiyatlarini aniqlash; - o'zining darsidagi muhit bilan boshqa tajribali o'qituvchining darsidagi muhitning taqqoslash orqali xulosa chiqara olish.

Kasbiy pedagogik muloqot shaxs kasbiy-pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muommoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, mashg'ulotga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Kasbiy pedagogik muloqotning vazifasi - texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi. Mashg'ulotda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat: auditoriya bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish; -tashkiliy ishlardan mashg'ulot jarayonining muhim bosqichga tezlik bilan o'ta olish; - auditoriyaning ijtimoiy - psixologik yakkaligini "biz" hissini shakillantirish; - vaziyatga qarab talaba va tinglovchilar bilan muloqot usullarini qo'llash; - butun auditoriya jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish; - latofat, samimiylik, sofdillikni o'zida shakillantira olish, mashg'ulotda namoyon qila olish; - taqiqlangan pedagogik talablarni kuchaytirish, vaziyatga qarab ish tutish; - mimika (yuz ifodasi) pantomimika (harakatlar) ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot)ni faol qo'llash; - o'zaro bir-birini tushunishni his qilish.

Kasbiy muloqotni muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Talaba, tinglovchi o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar talaba va tinglovchilar bilan ularning yosh kategoriyasini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi o'zi uchun boshqalar bilan bo'ladigan muloqotning yaxlit portretini tuzib olish kerak. Bu auditoriya bilan bo'ladigan munosabatlarni tashkil qilishga yordam beradi. Pedagogik muloqot o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatni tashlab ketgan o'qituvchilardan so'rovnoma asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ularda muloqotchanlik sifatlari kasbiy fazilat sifatida shakillanmaganligi aniqlangan. Shu jumladan kuchsiz rahbarlarda ham xuddi shunday holat kuzatilgan.

Kasbiy faoliyatdagi muloqot uzoq, davomli muloqotdir. Pedagog faoliyatida muloqotning turli bosqichlarda hissiy jihatdan o'zini his qilish muhim ro'l o'ynaydi. Pedagog o'ziga mashg'ulotga kirishdan avval ko'rsatma berishni o'rganishi lozim. Pedagog o'zida ijodiylik hissini shakillantirish va boshqarish uchun quyidagi autotreninglarni qo'llashi mumkin: - men tinchman va hotirjamman; - men ishonch bilan mashg'ulot o'ta olaman; - talaba va tinglovchilar meni tinglashadi; - men mashg'ulotga yaxshi tayyorlanganman; - mashg'ulot juda qiziqarli bo'ladi; - kayfiyatim yaxshi; - menga mashg'ulotda ishlash yoqadi.

Kasbiy jarayondagi muloqotni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Tinglovchi va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli).
2. Pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi.
3. Aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni yechishda namoyon bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi.

Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushinish mumkin. a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati; c) talabalar va tinglovchilar jamoasining xususiyatlari.

https://doi.org/10.67780/buxoro-xalqaro-universiteti-ilmiy-axborotnomasi.2026.0a87cc99

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi: 1- Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2- Do‘stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3- Masofadan turib muloqotga kirishish.
4- Qo‘rqitish (qo‘rquv) asosidagi muloqot.
5- Soxta obro‘- e’tiborga qaratish uchun tashkil qilinadigan muloqot. Birinchi uslub asosida pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi. Ikkinchi munosabatda asosan do‘stona munosabatlar o‘quv tarbiyaviy faoliyatda shakillanadi. Uchinchi uslub yani masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Masofa juda uzoq bo‘lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib ijodiylik muhiti shakillanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro‘- etibor oshadi. To‘rtinchi uslub qo‘rqish-qo‘rqitish asosidagi muloqot bo‘lib bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba’zi pedagoglar talabalarni qo‘rqitish orqali muloqotda bo‘ladi. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakillanmagan bo‘ladi. Birinchi uslub- soxta obro‘-etibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo‘lib yosh o‘qituvchilar malakasi yetarli bo‘lmagani uchun yolg‘on ishlatadilar. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchi bilan tezroq muloqotda bo‘lib olishga harakat qiladilar. Bunday usulni qo‘llayotgan pedagogda umumiy pedagogik kommunikativ madaniyati yetishmaydi. O‘qituvchilar ijtimoiy - psixologik partretini baholash tizimini shakillantirishga qaratilgan metodikalarni ishonchliligi, valentligi va ularning obektivligini tekshirish maqsadida kasb-hunar kolleji faoliyat yurayotgan va tahsil olayotgan talabalar ustida tajriba sinov ishlari amalga oshiriladi. Tajriba sinov natijalarida o‘qituvchining psixologik qiyofasining tabiy va gumanitar yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan professor o‘qituvchilar o‘ziga xoslikni, o‘xshash va farqlarni izoxlash imkonini beradi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o‘z “Meni” atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, shaxsning hayot yo‘llari avval oilada, bog‘cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Pedagogik muloqot - bu muloqot turlaridan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatda muhim o‘rin tutadi. Biz guruh va jamoaga kirar ekanmiz, doim unda turli rollarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o‘ynasak, kasalxonada bemor, do‘konda xaridor, oilada rafiq yoki rafiqa, ota - ona oldida esa farzandlik rolini bajaramiz. O‘smirlar ongini va e’tiqodini shaklantirishida milliy g‘oyani to‘g‘ri targ‘ib etishda muloqot katta ahamiyatga ega.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o‘zini - o‘zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o‘ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto‘g‘ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a’zoning qulay pozitsiyasini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyushtirish;

shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan ishbilarmonlik o‘yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Yuqoridagi qoidalarga barcha talabalar rioya qilib, gavdalarini to‘g‘ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo - ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug‘ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig‘ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga erishadilar. Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish muloqotdosh tanlashga imkon tug‘diradi. Jismoniy va ma’naviy jihatdan erkinlikka erishish o‘ziga ishonch tuyg‘usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo‘lishga shart-sharoit yaratadi.

Xulosa. Insonning o‘rab turgan olamga o‘zaro ta’siri ob’ektiv munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi, ob’ektiv munosabat va aloqalar so‘zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo‘ladi. Guruh a’zolarining bu ob’ektiv o‘zaro munosabatlari sub’ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o‘zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o‘rnatilmasa, ular bir-birini to‘g‘ri tushunmasdan to‘laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Авезов О.Р., Рузиев Н.И “Ҳарбий психология ва педагогика асослари” “Камолот” Бухоро-2024.
[2] N.Ruziev opposes "Stressful states and behavioral reactions of a person in an extreme situation." The year 2023.
[3] Ruziev.N.I characteristics of COMMUNICATIVENESS in the FORMATION of Amir TEMUR's LIFE-ACTIVITY and moral-Psychological QUALITIES Journal of Child Psychology and Psychiatry ISSN(Online): 2984-7958 Sjif Impact Factor |(2023): 5.817| Volume-7, Issue-1, published / 20-01-2024/.
[4] Ruziev N. Psychology of communication category definition of interpersonal relations Republican scientific and practical conference “Topical issues of teaching social and humanitarian sciences in the renewing development of Uzbekistan”. APRIL 26, 2024.
[5] Рузиев Н. Тема: Особенности развития культуры общения человека в современном обществе.

https://doi.org/10.67780/buxoro-xalqaro-universiteti-ilmiy-axborotnomasi.2026.0a87cc99

[6] Ruziev Nodirbek Ikromovich PERCEPTUAL SIDE OF INTERPERSONAL RELATIONS IN COMMUNICATION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods Volume 2, Issue 7, July, 2024 https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1.

[7] Ruziyev Nodirbek Ikromovich HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal.

[8] . Ruziyev N.I Guruhiy jarayonlarda shaxslararo munosabatlar SAMO QALQONLARIILMIY-AXBOROT JURNALI 10 (2) 2024 y.

[9] Ruziev Nodirbek Ikromovich For Publication of the Paper entitled PERCEPTUAL SIDE OF INTERPERSONAL RELATIONS IN COMMUNICATION Volume 2, Issue 7, July, 202.

[10] Ruziyev N.I. "HARBIY XIZMATCHILAR MULOQOTIDA EMPATIYA. SHAXSDA EMPATIYA UYG'OTISH MEXANIZIMI" O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY AVIATSIYANING RIVOJLANISHI TARIXI VA ISTIQBOLLARI O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya institutining 30 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya materiallari to'plami 2024 yil 20 iyun.

[11] Ruziyev N. "MULOQOT PSIXOLOGISI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI ANIQLASH KATEGORIYASI" "YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O„QITISHNING DOLZARB MASALALARI" RESPUBLIKA ILMIY- USLUBIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMLARI (2024-yil 26-aprel, Qarshi shahri).

[12] Рузиев Н. "Особенности развития культуры ощения человека в современном обществе" SAMO QALQONLARI ILMIY-AXBOROT JURNALI 9 (1) 2024 y.

https://doi.org/10.67780/buxoro-xalqaro-universiteti-ilmiy-axborotnomasi.2026.0a87cc99